

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 4

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 882 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-aprelda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Organizational Behavior and Leadership.....	10
Ibrokhim Gulomov	
Baliqchilikda klasterlarini tashkil etishning nazariy asoslari	18
Olim Murtazayev, Muydinov Olim Bekmuratovich	
Оценка состояния привлечения инвестиций в сферу туризма Узбекистана и механизмы управления	24
Арзиматов Бобирмирзо Зокирджон угли	
Biologik aktivlar buxgalteriya hisobni milliy va xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish masalalari ...	27
Axmadaliyeva Zebo Abduxalimovna	
Aholi yashash joylarida yong'in risklarini bartaraf etish xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari	32
Aziz Zikriyoev	
O'zbekistonda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimi boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi va vazifalari.....	40
Beknaeva Shaxnoza Vladimirovna	
Mintaqaviy turizmning iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri (O'zbekiston turistik xizmatlar bozori misolida).....	45
D. B. O'roqova	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishning asosiy yo'llari.....	50
Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'li, Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o'g'li	
Sanoat korxonalarining aksiyalar bozoridagi faoliyati tahlili: muammolar va yechimlar	55
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
Qurilishda modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish	63
Islamov Ozodjon	
Sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	67
J. K. Boymurodov	
Mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari	72
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
BlokchEYn texnologiyalari yordamida raqamli iqtisodiyotni o'zgartirish	77
Karabayev Rustam Zafarovich, Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi	84
Layli Mirzayeva	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda investitsion resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari.....	88
Luiza Komilovna Xaydarova	
Umumta'lim muassasalari sonining ekonometrik tahlilini pedAgogik metodlar yordamida amalga oshirish....	93
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna	
O'zbekiston tarixiy shaharlarida turistik faoliyati shakllanishi va ularni boshqarishning nazariy asoslari.....	98
Meliqulov G'ayrat Abdug'afforovich	
Iqtisodiy rivojlanish va ilmiy tadqiqot rivojlanishining havo ifloslanish darajasiga ta'siri	105
Murodullayev Kamoliddin Sherzod o'g'li, Sadibekova Bibisora Djapparovna, Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li	
Hududlarni rivojlantirish va "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishning ekologik muammolari.....	110
Maxkamov Saidafzal Saidkamol o'g'li, Yigitaliyeva Dilnavo Mansurjon qizi	
Ekoturizm obyektining tasniflanishi va alohida xususiyatlari	116
Qodirov Azizjon Anvarovich	
Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida sifat menejmentidan foydalanishning konseptual asoslari	121
Saidqulova Firuza Farmonovna	
Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalari.....	125
Shukurova Marifat Xodjiakbar qizi	
Ta'limning bosqichlari va ularning inson kapitalini shakllantirishdagi ahamiyati	129
To'rayeva Hurriyat To'yqulovna	



Hududlarda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish dasturini amalga oshirishda marketingni rivojlantirish yo'llari	136
Xamidov O. X., Tojiyeva A. F.	
Investitsiyalar marketingining strategik aspektlari.....	143
Xodjamberdiyeva Dilnoza Bahtiyorovna	
Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion muhit jozibadorligini oshirishga nazariy qarashlar	149
A. Bektemirov, A. A. Abdurahmonov	
Qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini oshirishning ilg'or xorij tajribasi	154
Abdulloev Asliddin Junaydullayevich, Ochilov Narzullo Fayzulloyevich	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari.....	159
Yodgorova Xalima To'liqinovna	
Turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda davlat va xususiy sherikchilikning o'zaro bog'liqligi tahlili.....	165
Raxmatov Adxam Itolmasovich	
Mamlakatimizda turizm tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida marketing instrumentlari orqali samarali tizim yaratish.....	169
Suyunova Kamilla Baxromovna	
Qishloq xo'jaligida agrokimyo xizmatlar ko'rsatishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	173
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
Yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish muammolari	178
Xomitov K. Z., Masharipova S. R.	
Considerations on the Problem of Illegal Migration and Human Trafficking	183
Azamatova Gulmira Bayirbekovna, Otarbayeva Guljan Kobeyevna	
Sustainable Development and Environmental Economics in Uzbekistan: A Focus on Carbon Pricing and Renewable Energy	186
Muhammadiyev Po'latjon Ilhomjon o'g'li, Urganbayeva Dilnoza Toxtasinovna	
The use of Digital Technologies in the Provision Of Utilities to the Population	192
Mamanazarov Oybek Shomurodovich, Inoyatova Durdona Shoxaydarovna, Alijonov Jamshid Alijon o'g'li	
The Current State of the Digital Economy in the Agrarian Sphere: Problems and Solutions	196
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Behavioral Theory of the Firm.....	201
Egamberdieva Oydin Abror qizi	
The Role of Information Technologies in Increasing the Capitalization of Commercial Banks	207
Egamova Makhfurat Esanovna	
Финансовые риски в исламском финансировании для внедрения в Республики Узбекистан	211
Абдуллоев Фуркат Олимджонович	
Совершенствование методологии экспертизы инвестиционных проектов	216
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли.....	223
Бибутова Шахло Саъдуллаевна	
Меры по снижению доли теневой экономики в стране.....	228
Махмудова Юлдузхон Бахромжон кизи, Сафаров Гиёсиддин Абдуллаевич ўғли	
Формирование национальной инновационной системы – одна из приоритетных задач повышения конкурентоспособности Республики Узбекистан	232
Н. М. Махмудов, А. А. Алиев, З. А. Мирзоев	
Мониторинг и анализ современного состояния и развития промышленности в Узбекистане.....	237
Назарова Раъно Рустамовна, Исмоилова Малика Дилшодовна	
Цифровая платформа как инструмент трансформации бизнес-процессов.....	243
Раупов Жамшид Рашидович	
Роль применения ключевых показателей эффективности труда на предприятиях.....	249
Рахматуллаева Шахноза Хамидовна	



Влияние цифровой трансформации на инвестиционную привлекательность Узбекистана.....	255
Саитхамолов Мухаммадхожа Сабирходжа угли, Маркабаева Жансая Айбек кызы	
Организация и координация методической помощи при управлении педагогическими кадрами	261
Хакимова Майя Юрьевна	
Интеграция узбекистана в мировое экономическое содружество путем унификации бухгалтерского учета на основе МСФО	266
Зарипова Саёхат Зафаровна	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari.....	271
Abduqodirova Ozoda Anvarjon qizi	
Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning joriy tahlili.....	276
Abdusalomov Jaxongir O'ktam o'g'li	
Globallashtirish sharoitida mamlakatimizda sug'urta bozorini raqamlashtirishning ahamiyati	282
Anvarova Z.	
The Role of Parents and Teachers in Promoting a Healthy Lifestyle in Children.....	286
Axtamov Djamshed Baxromovich	
A Study of the Importance of Green Economy in Uzbekistan Sustainable Economic Development and its Measurement Indicators in Relation to Environment.....	291
Ataniyazova Maksuda Baltayevna, Tairova Zarnigor Mammot qizi	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi.....	296
Avazov Iloxom Ravshanovich	
Foydani soliqqa tortish obyekti sifatidagi iqtisodiy tarkibi.....	301
Axrorov Zarif Oripovich	
Surxondaryo viloyatida aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini tahlili.....	309
Ibragimov Qobil To'xtamishovich	
Review of Methodological Approaches to Enterprises Financial Condition Analysis.....	314
Ismailova Maxbuba Mirxalilovna	
Innovatsion rivojlanish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini tasniflanishining nazariy va ilmiy asoslari.....	319
Masharipova Manzura Alimbayevna	
Korxonalarda benchmarking strategiyalarini qo'llashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari.....	325
Narziyeva Dilafiruz Muxtorovna	
Davlat budjetining soliqsiz daromadlari shakllanishini takomillashtirish yo'llari.....	330
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishi korxonalarining rivojlanish holati tahlili.....	334
Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li	
Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablari asosida tuzish.....	339
Pardayeva Zulfizar Alimovna	
Raqamlashtirish sharoitida qo'shma korxonasi faoliyatining tahlili.....	343
Rashidov Jamshid Xamidovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning o'rni.....	348
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Saloxiddinov Zuxriddin Nuriddin o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatishning ilmiy asoslari.....	352
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish ilmiy asoslari.....	356
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni joriy etishning huquqiy masalalari	360
Turg'unov Saloxiddin Jamol o'g'li, Mirzayeva Mohidil Vohidovna	
Zamonaviy sharoitlarda korxonalarning moliyaviy baqarorligini yaxshilash masalalari	366
Usmanova Guljahon Ulug'bek qizi	
Franshizalarni jalb qilishda davlat boshqaruvi tizimida marketing tadqiqotlarining ahamiyati	371
Xodjayev Anvar Rasulovich	



Transport Decarbonization Strategy.....	377
Yarashova Vasila Kamalovna, Muradov Bekzod Xidirnazar ugli	
Temir yo'l transportida ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish	382
Yermatova Dilnoza Axmadjonovna	
Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	387
Yuldashev Xusniddin Abdullayevich	
Issiqlik ta'minoti xizmatlarini ko'rsatish samaradorligi va sifatini baholash ko'rsatkichlari tizimi	390
Abdulaziz Abdumo'minovich Matro'ziyev	
Issiqlik ta'minoti xizmatlari sifatiga ta'sir etuvchi omillar va ularni baholash	394
Abdulaziz Abdumo'minovich Matro'ziyev	
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solishni takomillashtirish.....	399
Abdullayev Zafarjon Alijonovich, Zaydullayev Abduhabib Boliqul o'g'li	
Sug'urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqishning ahamiyati.....	404
Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
Bank risklarini boshqarishning xalqaro tajribalari.....	409
Abdurasulov Jaxongir Abduvaliyevich	
Tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy ma'sulligini ta'minlash mexanizmining amal qilish darajasi	416
Bayisbayev Javlon Nurlanovich	
Qishloq aholisining qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalarni o'zlashtirishga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash (Samarqand viloyati misolida).....	421
Bozorova Lobar Nuralevna	
Направления совершенствования инновационных стратегий в деятельности промышленных предприятий	427
Дониерова Зухрабону Алишер кизи	
Mol-mulk solig'ining korxonalar faoliyatiga ta'siri.....	432
Qudiyarov Kishibay Ramatullayevich	
Banklar reytingini aniqlash va barqarorligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari.....	438
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarini innovatsion usullar orqali boshqarishni takomillashtirish	442
Mo'minova Ma'suda Baxtiyarovna	
Auditorlik tekshiruvini dasturiy ta'minot asosida tashkil etish: muammo va yechimlar.....	447
Nazarova Kamola Sattoral qizi	
Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasi.....	453
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati hamda uni rivojlantirish istiqbollari.....	460
Nurullayeva Shaxnoza, Saydullayeva Saodat	
Tijorat banklari inson kapitali samaradorligini baholashda KPI ko'rsatkichlaridan foydalanish mexanizmlari	467
Turaeva Mastura Kurbanovna	
Сущность и особенности инвестиционно-строительного процесса	471
А. Бектемиров, Б.М. Абдувалиев	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	478
Saidov Hayotjon Raxmatulloyevich	
Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish.....	482
Sa'dullayeva Asalxon Muzaffarovna	
Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshlikni baholash usullari	485
Abdulloyev Asliddin Junaydullayevich, Teshayev Mirolim Djumayevich	
Tadbirkorlik subyektlarida soliq yukini optimallashtirish mexanizmi	490
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	



Davlat sektorida ichki audit tadbirlarini umumiy rejalashtirish Xamidova Z. U.	495
Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va uning ahamiyati..... Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	501
Kambag'allikni qisqartirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi..... Xudoyberdiyev Jamshid Juraboy o'g'li	505
Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish..... Shaymatova Nargiza Ashurovna	511
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta xizmatlari..... Shodmonova Odina G'ofur qizi	516
Fuqarolar davlat pensiya ta'minoti tizimining amaldagi holati tahlili..... Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	520
Aholiga bank xizmatlari ko'rsatishning ijtimoiy ahamiyati..... Eldor Uskanov	525
Innovatsion boshqaruvning ilg'or xorijiy tajribalari Yusupova Jamila Karamatdinovna	530
Neft-gaz korxonalari moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari tahlili ("O'ZBEKNEFTGAZ" AJ misolida) Umurzoqov Jamoliddin Sherbekovich	534
Korxonalarda savdo marketing faoliyati samaradorligini baholash..... Sobirov Azizbek Avzbekovich	541
Moliyaviy firibgarliklarga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari..... Gadaev Ismat Yadgarovich	548
Hududlarda islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida amalga oshirilgan investitsion loyihalar: to'siqlar va yechimlar Irgasheva Gulbahor Sodiqovna	551
O'zbekistonda investitsiyalardan samarali foydalanish asosida oziq-ovqat sanoati samaradorligini oshirish yo'llari..... Kobilova Nasiba Xurramovna	554
Foreign Economic Relations as a Factor of Effective Functioning of the Economy Bakhodurova Sulkhiya Azizkhodjaevna, Li Marina Rudolfovna, Mukhtarova Donata Ravshanbekovna, Romashkin Roman Anatolyevich	561
Modern Approaches to the Organization and Development of the Consumer Services Market..... Musyeva Shoira Azimovna	566
Ishlab chiqarish siklini qisqartirishning iqtisodiy samaradorligi..... Odina Nabiyeвна Tuychiyeva, Nazarova Latofat Toirjon qizi	570
Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing strategiyasini amalga oshirish..... Rashidova Xadicha Tursunalievna	575
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank faoliyatini iqtisodiy-matematik modellashtirish yo'llari Raxmanov Mexridin Sindarovich	581
Korporativ boshqaruv amaliyoti bo'yicha hisobot tuzish bo'yicha xorijiy tajriba..... Tashmatov Rustam Xusanovich	586
Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari Yuldashev Xusniddin Abdullayevich	592
Iqtisodiyotda turizm o'rnini statistik baholash uslubiyoti..... Zilola Jumanova	595
Финансовые риски в исламском финансировании для внедрения в Республики Узбекистан Абдуллоев Фуркат Олимджонович	602
Блокчейн-технология и информационная безопасность в цифровой экономике Узбекистана..... Кадиров Алишер Исмаилович	607
Цифровая платформа как инструмент трансформации бизнес-процессов Раупов Жамшид Рашидович	611



O'zbekistonda zamonaviy kabel va sim mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatiga nazar.....	617
Rashidova Odina Olimjon qizi	
Современные тенденции развития валютных отношений в Узбекистане	622
Камалов Камолатдин Кахрамонович	
Sug'urta sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni	626
Sharobiddinov Akramjon Goyibbayevich	
Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish yo'nalishlari	630
Fayziyeva Aziza Azamat qizi	
Modeling the Stackelberg strategy in a linear model (linear city) Hotelling.....	635
Musayeva Shaira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
Mulkning kapitallashuvi darajasini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish samaradorligini baholash uslublari.....	644
Norboyev Odil Abrayevich	
Tijorat banklarining kredit portfelini amaliy holati va ekonometrik tahlillari: ATB "Aloqabank" misolida.....	649
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyeвна	
O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" muhitida kreditlash va moliyalashtirish imkoniyatlari	654
Taxir Urkinbayev	
Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil qilishning xususiyatlari.....	658
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
Chinese Commercial Banks Experience in Asset Diversification	663
Uktamova Nozima Narzulla kizi	
Sanoat taraqqiyotida ishlab chiqarish korxonalarini ustuvor rivojlantirish istiqbollari.....	667
Yadgarov Akram Akbarovich	
Анализ деятельности коммерческих банков Узбекистана по кредитованию физических лиц.....	673
Базарова Нигора Равшановна	
Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning innovatsion jarayonlarga ta'sirini baholash.....	684
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	689
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Tashqi mehnat migratsiyasi.....	694
O. N. Djurayev	
Raqamli iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini baholash	699
Otaboyeva Dildora	
Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi	705
Raimov Xurshid Muxtorovich	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniringni qo'llash istiqbollari	711
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekiston Respublikasi moliya bozorida tijorat banklari faoliyati: muammo va yechimlar	716
Toymuxamedov Ibroxim Rixsiboevich, Jumaev Islombek Akram o'g'li	
Agrar ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari	723
Boltayev Nurali Shiramatovich, Beglayev Uchqun Xurramovich, Abdiyev Izzat Risqiboyevich	
O'zini o'zi band qilgan shaxslardan olinadigan soliqlarni takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni jilovlash masalalari	731
Davranov Iskandar Jumayevich	
Iqtisodiy konsentratsiyalarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish.....	738
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Role of Private and Public Kindergartens in Early Childhood Development	744
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
"Yashil" enegriya quvvatlarini barpo etish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosi sifatida.....	749
Muminova Elnoraxon Abdurkarimovna, Umarova Dilnoza Oybek qizi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari	754
Qlichev Baxtiyor Pardayevich	



Korxonada likvidlik riskini minimallashtirish orqali uning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish	759
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Развитие международных торгово-экономических связей Республики Узбекистан	766
Ким Татьяна Валерьевна, Гофуржонов Шахрибону Бахромжон кизи	
Kapital qurilishni boshqarish samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari	774
A. Bektemirov, M. U. Sarimsoqov	
O'zbekiston mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish.....	780
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Bahromov Shahzod Fazliddinovich	
Роль имиджа в улучшении инвестиционной привлекательности высших учебных заведений.....	787
Жанзаков Бекзот, Жонузиков Мирзабек	
Innovatsion kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribasi va uni mamlakat iqtisodiyotida qo'llash imkoniyati.....	795
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Eshqulova Dilorom Abduravupovna	
Перспективы развития банковского сектора в Узбекистане для иностранных туристов	802
Муминов Шахзод Низомиддинович, Каримова Азиза Махмадризоевна	
Innovatsion faoliyat moliyaviy modellari va mexanizmlarini rivojlantirishning konseptual asoslari	806
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda samarali foydalanish yo'llari	814
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Turistik xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari va marketing tadqiqotlari.....	819
Berdiqulova Iroda Rayimqulovna	
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi: asosiy muammolar va rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari	823
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich	
Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari.....	832
Botirova R. A., Sirojiddinov I. Q.	
Kriptoalyuta va blokcheyn tadqiqotlari: tendensiyalar va istiqbollar	835
Berdiqulov Jurabek	
Bank risklarni monitoring qilish tizimini takomillashtirish	837
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
O'zbekiston hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ko'p qavatli "yashil" fermer xo'jaliklarini tashkil etishning ahamiyati	843
Turdimuratova Aziza Alisherovna	
Surxondaryo viloyatining mahalliy budjet daromadlarini oshirish yo'llari va uni arima modeli asosida prognozlash.....	846
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va undagi tarkibiy o'zgarishlarni statistik baholash.....	856
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	863
Pardayev Jamshid Muzaffarovich	
Turizm bozorini rivojlantirishda mehnat bozorining tutgan o'rni va ahamiyati	872
Berdiqulova Iroda Rayimqulovna, Berdikulov Jurabek	
Проблемы расчета определения и планирования прибыли предприятий в условиях модернизации экономики	876
Алиева С.С.	



TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI

O. N. Djurayev

PhD, Qarshi davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: XXI asrda jahon mamlakatlari iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va liberallashtirish jarayonida mehnat migratsiyasining har bir mamlakat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, mehnat resurslariga boy va xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lgan O'zbekiston uchun mehnat migratsiyasi masalalari muhimdir. Shu sababli, maqolada mamlakatimizda mehnat migratsiyasining kelib chiqish sabablari, uning o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi holati va istiqbollari o'zining batafsil bayonini topgan.

Kalit so'zlar: jahon iqtisodiyoti, globallashuv, xalqaro mehnat bozori, ishsizlik, oqilona bandlik, tashqi mehnat migratsiyasi, demografik holat, mehnat sharoitlari.

Abstract: In the process of integration and liberalization of the economy of world countries in the 21st century, the importance of labor migration in the socio-economic development of each country is increasing day by day. The issues of labor migration are especially important for Uzbekistan, which is rich in labor resources and one of the main participants in international labor migration. Therefore, in the article, the causes of labor migration in our country, its characteristics, current situation and prospects are described in detail.

Key words: world economy, globalization, international labor market, unemployment, reasonable employment, foreign labor migration, demographic situation, working conditions.

Аннотация: В процессе интеграции и либерализации экономики стран мира в XXI веке значение трудовой миграции в социально-экономическом развитии каждой страны возрастает с каждым днем. Вопросы трудовой миграции особенно важны для Узбекистана, который богат трудовыми ресурсами и является одним из основных участников международной трудовой миграции. Поэтому в статье подробно описаны причины трудовой миграции в нашей стране, ее особенности, текущая ситуация и перспективы.

Ключевые слова: мировая экономика, глобализация, международный рынок труда, безработица, разумная занятость, внешняя трудовая миграция, демографическая ситуация, условия труда.

KIRISH (INTRODUCTION)

Mehnat migratsiyasi bugungi kunga kelib jahon mamlakatlari iqtisodiyoti rivojlanishining muhim fenomeniga aylandi. Jahon xo'jaligi rivojlanib, mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayib borishi bilan birga tashqi mehnat migratsiyasi ham tobora kuchayib bormoqda va ushbu jarayon kelajakda yanada tez sur'atlarda davom etadi. Rivojlangan mamlakatlar va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o'rtasidagi farqlarning uzluksiz kuchayib borayotgani ham ushbu jarayonlarni jadallashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatayotganligi tabiiy. Mehnat migratsiyasi kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida migratsiyaning o'ziga hos munosib ish va yuqori daromad topish maqsadida amalga oshirilgan alohida turi bo'lib, iqtisodiyoti og'ir ahvolda bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda ishsizlik va past ish haqini jiddiy muammolarini hal etishning asosiy yechimlaridan biriga aylandi.

Mehnat migratsiyasi mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda yuzaga kelgan iqtisodiy tanglik va ijtimoiy beqarorlik xavf-xatarlaridan saqlanishning asosiy vositasi bo'ldi. Chunki aynan mehnat migratsiyasi ishchi kuchi resurslariga boy mamlakatimiz uchun iqtisodiy muammolarni va ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish imkoniyatini yaratdi. Yuzaga kelgan ushbu imkoniyatdan foydalanmaslik endi mustaqillikka erishgan yosh davlat iqtisodiyoti taqdirini xavf ostida qoldirish bilan barobar edi. Mehnat migrantlarini xorijga jo'natish natijasida mamlakat ichida ishsizlikdarajasining qisqarishidan va mamlakatga xorijiy valyuta o'tkazmalari kelib



tushishidan manfaatdor edi. Davlat mehnat migratsiyasi siyosatini yuritishda, uni tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishda mamlakat ichidagi va jahon xo'jaligidagi vaziyatni, ushbu muhim sohada yuz berayotgan keskin o'zgarishlarni hisobga olgan holda ish tutadi. O'zbekistonda harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar tashqi mehnat migratsiyasi uchun yangi vaziyat yuzaga kelishini ta'minlab berdi. Ayniqsa, aholi jon boshiga YAIM hajmini keskin oshirish, mamlakatda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar davlat mehnat migratsiyasi siyosatining keskin o'zgartirish uchun real imkoniyat va zaruriy ehtiyoj tug'dirdi. Bularning barchasi mehnat migratsiyasiga nisbatan davlat siyosatini yangi asoslarda takomillashtirish, aniqrog'i tubdan o'zgartirish zaruratini keltirib chiqardi. Bizningcha, davlatning tashqi mehnat migratsiyasiga nisbatan yangicha siyosati o'zida uchta muhim narsani aks ettirmog'i lozim. Bu,

birinchidan, amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatda yuzaga kelgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, yangi imkoniyatlar;

ikkinchidan, Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni tez sur'atli bilan rivojlantirish bo'yicha belgilangan strategik vazifalar;

uchinchidan, tashqi mehnat migratsiyasida global darajada jahon xo'jaligida kechayotgan murakkab jarayonlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

XX asrning oxiri XXI boshlarida jahon xo'jaligi miqyosida kechayotgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan biri – bu tobora avj olib borayotgan mehnat migratsiyasi hisoblanadi. Mehnat migratsiyasi faqat mehnat migrantlarining turmush tarzi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, bandligi, daromadlari, psixologiyasi, madaniyati, dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatibgina qolmaydi. U ishchi kuchi eksporti hamda importi bilan shug'ullanuvchi mamlakatlarning ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mehnat migratsiyasining mohiyati va mazmuni, ishchi kuchi migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillar va o'z navbatida, uning mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri, mehnat migratsiyasining ijobiy jihatlar va salbiy oqibatlar, ishsizlik muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari, mehnat migratsiyasining sabab va oqibatlar, mehnat resurslarining shakllanishi, jahonda yuz berayotgan mehnat migratsiyasi jarayonlari, mehnat migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish usullari va vositalarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar Keyns J.M. [22], Pigu A. [24], Kastles., Miller M.J. [21], Dansegiyer R.M. [23], Erenberg R.D., Smit R.S. [20], Ionsev V.A. [6], Kartashov S.A., Odegov Yu.G., Kokorev I.A. [7], Falk M., Vorter M. [25] larning asarlarida o'rganilgan.

O'zbekistonda ishsizlikning yuzaga kelishi va keskin tus olishining sabablari, mehnat migratsiyasi muammolarini bartaraf etish yo'llari hamda mamlakatimizda mehnat migratsiyasini samarali tashkil etishga oid tadqiqotlar Abduraxmonov Q.X. [1], Ubaydullayeva R.A., Ata-Mirzayev O.B., Umarova N.O. [11], Maksakova L.P. [8], Umurzakov B.X. [12], Artikova D.A. [2], Xolmo'minov Sh.R., Xomitov K.Z., Bobanazarova J.X., Abduramanov X.X. [19] larning asarlarida o'rganilgan.

Tahliliy yondashuv natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro mehnat migratsiyasi juda ko'p ichki va tashqi omillarning kuchli ta'siri ostida o'zgaruvchan murakkab iqtisodiy jarayondir. Vaziyatga qarab, u muayyan vaqtlarda kuchayib-pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, ma'lum hudud, mamlakat, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan jarayonlarga mos ravishda o'zining ijobiy, salbiy, joiz bo'lsa, siyosiy ta'sirini o'tkazish xususiyatiga ega. Mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, so'nggi yillarda O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda. Lekin, shunga qaramay O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasiga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirish zarurati hamon saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tadqiqot mehnat migratsiyasidan har ikkala tomonning (ishchi kuchini eksport qiluvchi va import qiluvchi) ko'zlagan maqsadi va unga erishish yo'llari, ushbu jarayonning ishtirokchi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qilishni nazarda tutadi. Unda davlatning mehnat migratsiyasi siyosatining shakllanishida bevosita ta'sir ko'rsatayotgan omillarning tahliliga asosiy e'tibor qaratildi. Tadqiqot mehnat migratsiyasiga oid nazariy va amaliy ilmiy izlanishlar natijalariga, shuningdek mavzuga daxldor meyoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida mehnat migratsiyasining holati va rivojlanish istiqbollarini o'rganishda dialektik va tizimli yondashuv, guruhlash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, induksiya-deduksiya, sotsiologik tadqiqot, qiyosiy va omilli tahlil, statistik va dinamik yondashuv usullaridan foydalanildi. Amalga oshirilgan tadqiqotdan mehnat migratsiyasini tartibga solishning yangi takomillashgan strategiyasini shakllantirish va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini oshirishga erishish maqsad qilib qo'yilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrda qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, unda jami iqtisodiyotda band bo'lgan aholining 1/3 qismi ijtimoiy foydali mehnat bilan band edi, hozir esa u 26,2 %gacha tushdi ^[18]. Shu davr mobaynida qishloq aholisi tarkibida mehnat resurslari 1,6 martaga ko'paydi. Natijada qishloq joylarida mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi va unga bo'lgan talab o'rtasidagi nomutanosiblik yanada kuchaydi. Umuman qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi sonining tobora qisqarib borishi hamda jami iqtisodiyotda band aholi sonidagi ulushining pasayishi jahon xo'jaligi tarkibida ro'y berayotgan global tendensiyalarga xos bo'lib, ushbu jarayonlar kelgusida yanada jadallashib boradi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan G'arb davlatlarida ushbu ko'rsatkich 3-5 % atrofida ekanligi, Germaniyada 2 %dan ham pastligi, Niderlandiyada bo'yo'g'i 1 % ekanligi fikrimizning yorqin dalilidir. Bu shuni ko'rsatadiki, g'arb dehqoni 20-33 kishini, nemis dehqoni 50 kishini, niderland dehqoni 70 kishini, o'zbek dehqoni esa atigi 4 kishini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Bunday holatning asosiy sababi mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tarkibida ekstensiv omillarning ulushi yuqori, tarmoq xodimlari mehnatining unumdorligi esa juda past ^[3].

Mamlakatda izchil amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich qishloq xo'jaligini taraqqiyotning dinamik ravon yo'lga olib chiqadi. Kelajakda u O'zbekiston milliy iqtisodiyotining shunchaki tarkibiy qismi emas, balki uni yuksaltirishning mustahkam poydevoriga, yetakchi tarmog'iga aylanadi. Tarmoqda zamonaviy texnika bilan qurollanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish keng ko'lamda amalga oshiriladi, mehnat unumdorligi oshib, uning iqtisodiyotda jami bandlarga nisbatan ulushi 5-6 %gacha tushishi mumkin. Bu holat qishloq xo'jaligida band bo'lganlar sonining keskin qisqarishini bildiradi va mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi oshadi. Natijada mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbat bo'yicha nomutanosiblik yanada kuchayib boradi.

Yangi O'zbekiston va tashqi mehnat migratsiyasi siyosatini tubdan o'zgartirish uchun paydo bo'lgan yangi imkoniyatlar

Hozirgi iqtisodiyotning innovatsion sharoitida mehnat migratsiyasi bilan bog'liq masalalarga hukumat miqyosida katta e'tibor qaratmoqda. 2020-yilning sentyabr oyida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi ^[13] qarorning imzolanishi fikrimizning yorqin dalilidir. Ushbu qaror, xalq farovonligini oshirish, davlatimizning xalqaro nufuzini ko'tarish, mamlakatga yaxshi samara bermayotgan mehnat migratsiyasi illat va kamchiliklaridan xolos etishga qaratilgan. 2021-yil 1-yanvardan boshlab tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasini yo'lga qo'yish va unga asosan xorijga chiqib ketayotgan shaxslarni ishga yuborishdan oldin majburiy tartibda kasb-hunarga o'qitish va tilni o'rgatish tizimining joriy etilishi – O'zbekistonda mehnat migratsiyasi muammosini hal etishning asosiy markaziga aylandi. Qarorda mamlakatda mehnat migratsiyasiga oid muammolarni hal etishning aniq mexanizmlari ifodalangan va uni amalga oshirish yo'llari belgilangan.

2020-yilning avgust oyida qabul qilingan "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Qarorida ^[9] O'zbekistonda mehnat migratsiyasi bilan bog'liq muammolarni samarali yechish mexanizmlarini yaratish va joriy qilish nazarda tutilgan.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan tashqi mehnat migratsiya siyosatini takomillashtirish va tartibga solish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar zahirida xorijda ishlayotganlarga nisbatan munosabat o'zgarib, mehnat migrantlari bilan muloqot o'rnatildi, ularning muammo va ehtiyojlarini o'rganish hamda hal qilish bo'yicha yangicha tizimda ishlash joriy qilindi. Jumladan, tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan tashqi mehnat migratsiyasida faoliyat olib borayotgan O'zbekiston fuqorolariga amaliy yordam berish maqsadida xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab quvvatlash hamda huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi.

Bugungi kunda ushbu jamg'arma mablag'lari hisobidan mingdan ortiq fuqarolarga yordam ko'rsatilib, xorijda qiyin ahvolda qolgan mehnat migrantlarini vatanga qaytarish, ularga yuridik yordam berish, jumladan, ish beruvchilar tomonidan to'lanmagan ish haqlarini undirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilayotgani diqqatga sazovor. Jumladan, ushbu ishlar zahirida mehnat migrantlarining hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash, ularning oila a'zolari uchun ipoteka kreditlarini ajratish, vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga ketayotgan fuqarolarning transport xarajatlarini subsidiyalash, shuningdek, xorijda ishlamoqchi bo'lgan shaxslarni talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, qaytib kelgan mehnat migrantlarining bandligini ta'minlash maqsadida band bo'lmagan yoshlar va ayollarning kasbga o'qitish xarajatlarini qoplash uchun ish beruvchilarga subsidiya taqdim etish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirildi. Ayniqsa, ishsiz aholini kasbga tayyorlashda Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tajribasi asosida "Ishga marhamat" monomarkazi hamda uning hududiy filiallari yordamida tashqi mehnat migrantlarini xorijiy tillarga, kasbga va xorijiy mamlakatlar qonunchiligini o'rgatish bo'yicha amaliy tizim yaratildi.



Nazarimizda, O'zbekistonda mehnat migratsiyasiga oid murakkab va o'ta dolzarb muammoni yechishda uning faqat milliy iqtisodiyotga keltirayotgan qo'shimcha daromadlarining o'zi bilan cheklanib qolish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Bu borada davlat siyosatini shakllantirishda bir qator muhim jihatlarni hisobga olinishi shart. Chunki mehnat migratsiyasi tobora globallashtirib borayotgan jahon xo'jaligida kechayotgan va xalqaro mehnat taqsimoti bilan uzviy bog'liq murakkab va o'ta o'zgaruvchan jarayon. Bundan tashqari, ishchi kuchi resurslarini xorijga eksport qilayotgan O'zbekiston uchun uning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari, ushbu oqibatlarning mamlakat taraqqiyotiga ta'siri nuqtayi nazaridan ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Ushbu oqibatlar turli omillarning kuchli ta'siri ostida u yoki bu tomonga qarab o'zgarishi ham mumkin. Unga nisbatan davlat siyosatini shakllantirishda ishchi kuchi eksportidan olinayotgan pirovard samarani baholashda uzoq kelajak nuqtayi nazaridan yondashish kerak. Bu yerda uzoqni ko'zlab bir qator ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda kompleks yondashish maqsadga muvofiq. Bizningcha, bular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tobora globallashtirib borayotgan jahon xo'jaligida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ularning O'zbekistonda mehnat migratsiyasi ko'lami va ko'rsatkichlariga ta'siri;
- mehnat migratsiyasini boshqarish va tartibga solish bo'yicha xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlarning talablari va ularga rioya qilish zarurati;
- mehnat migratsiyasining O'zbekiston xalqaro imidjiga, obro'y etiboriga, oriyi mamlakatlarning u bilan hamkorlik qilishga qiziqishning kuchayishiga ta'siri;
- mehnat migratsiyasining yaqin va uzoq kelajakda, uzoq kelajakka ustunlik bergan holda, O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga, uning asosiy makroiqtisodiy ko'satkichlariga ta'siri;
- mehnat migratsiyasining O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotiga ta'siri;
- mehnat migratsiyasining mehnat migrantlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, madaniyatiga, dunyoqarashiga, kasbiy malakasiga, oilaviy hayotiga, kealajagiga, daromadlariga, bandligiga va shaxsiy hayotining boshqa muhim jihatlarga ta'siri.

Yuqorida keltirilgan jihatlarning har birini baholash va ularni integral ko'rsatkich sifatida yagona maxrajga keltirish alohida mustaqil tadqiqot predmeti.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Mamlakatda izchil amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'siri ostida Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskin o'zgardi, davlatning tashqi mehnat migratsiyasi siyosatida tub o'zgartirishlar kiritishga ham muhim zarurat, ham real imkoniyat paydo bo'ldi. Muhtaram Prezidentimiz ilgari so'rgan O'zbekistonni yanada rivojlantirish, uni rivojlangan 50 ta mamlakat qatoridan o'rin olishiga erishish, aholining turmush farovonligini yuksaltirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlik darajasini oshirish, ta'lim sifatini takomillashtirish, kambag'allikka barham berish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi tashabbuslarining hayotga tadbqiq etish mehnat migratsiyasi masalalari bilan uzviy bog'liq. O'z navbatida, ushbu tashabbuslarning hayotga tadbqiq etilishi muhojirlikda og'ir sharoitlarda mehnat qilayotgan fuqorolarimizni ona yurtiga qaytishi uchun qulay sharoit, munosib ish haqi bilan ta'minlash uchun sharoit yaratish imkonini beradi. Buning uchun avvalo mehnat migrantlari muammosi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim, bugungi kun va kelajak nuqtayi nazaridan o'z yechimini kutayotgan markaziy masalalaridan biri sifatida qaralmog'i shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qlandar Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "FAN" nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.
2. Артыкова Д.А. Проблемы достижения равновесия на рынке труда в условиях углубления рыночных реформ. – Т.: ТГЭУ. 2006.
3. BMT Bosh Assambleyasi: Mehnat migrantlari va ularning oilalari huquqlarini himoya qilish bo'yicha Xalqaro konvensiya. <https://www.ohchr.org/RU/ProfessionalInterest/Pages/CMW.aspx>
4. Более 30 млн. россиян хотят эмигрировать. Интернет ресурсы: <https://www.dw.com/ru/boleee-30-mln-rossijan-hotjat-jemigirovat/a-58310364>.
5. Доклад о миграции в мире 2020. <https://www.google.com/>
6. Ионцев В.А. Международная миграция населения: теория и история изучения. – М., 2005.
7. Карташов С.А., Одегов Ю.Г., Кокорев И.А. Трудоустройство: поиск работы. Учебное пособие / Под. ред. Ю.Г.Одегова. – М.: Издательство "Экзамен", 2002. – 348 с.
8. Максакова Л.П. Узбекистан: совершенствование управления трудовой миграции в аспектах принимающих стран // V Уральский демографический форум. Россия 2014.



9. Mirziyoyev Sh.M. "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkollikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Qarori. <https://www.google.com/>
10. Народное хозяйство СССР в 1989. Статистический ежегодник. – М.: "Финансы и статистика", 1990. – С. 79.
11. Ubaydullayeva R.A., Ata-Mirzayev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy o'quv qo'llanma). – T.: Universitet, 2006.
12. Умурзаков Б.Х. Организационно-правовые основы регулирования трудовой миграции в Узбекистане. Международные отношения. №2, 2008.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentyabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4829-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4997972>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5052-sonli farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3001-sonli qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF 5953-son "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni.
18. O'zbekistonda mehnat va bandlik. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. – T.: 2020.
19. Xolmo'minov Sh.R., Xomitov K.Z., Arabov N.U., Bobanazarova J.X., Abduramanov X.X., Saidov N.R. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning strategik yo'nalishlari. Monografiya. – Toshkent, "Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi", 2020. – 278 b.
20. Эренберг Р.Д., Смит Р.С. Современная экономика труда. Теория и государственная политика / Пер. с англ. – М., 1996, 34-6.
21. Castles S., Miller M.J. The Age of Migration. Houndmills; Basingstoke; Hampshire; London: MacMillan Press Ltd., 2003.
22. Keynes J.M. The general theory of employment, interest, and money. – Springer, 2018. – 404 p.
23. Dancygier R.M. Immigration and conflict in Europe / R.M. Dancygier. – New York: Cambridge University Press, 2010.
24. Pigou A.C. Theory of unemployment. – Routledge, 2013. – 348 p.
25. Falk M., Biagi F. The impact of ICT and e-commerce on employment in Europe //Journal of Policy Modeling. – 2017. – V. 39. – №1. – P. 1-18.
26. Balsmeier, B., Woerter, M. Is this time different? How digitalization influences job creation and destruction. Research Policy, 48(8), 2020.
27. <https://review.uz/oz/post/povshaya-konkurentosposobnost-nashix-grajdan>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.